

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**1-2022**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

**Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

**Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>Sh.Hakimova</b> O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar .....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b> Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b> Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b> Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b> Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b> Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b> Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejavochi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b> Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b> Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya .....	158
<b>S.Isroilova, G.Karimova</b> Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizdulin</b> Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b> Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b> Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b> Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
<b>E.Qurbonova</b> Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b> Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b> O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b> So'z yasalanishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b> O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b> Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b> Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'ldosheva</b> Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b> Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b> "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b> Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Попубай</b> Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

**QADIMGI FARG'ONANING SAMOVIY TULPORLARI**  
(Mingtepa yaqinidan topilgan yangi qoyatosh rasmlari asosida)

**НЕБЕСНЫЕ КОНИ ДРЕВНЕЙ ФЕРГАНЫ**  
(На основе наскальных рисунков новых найденных вблизи Мингтепы)

**HEAVENLY HORSES OF ANCIENT FERGANA**  
(based on new petroglyphs found near Mingtepa)

Husanova Shahlo Artiqaliyevna<sup>1</sup>

Husanova Shahlo Artiqaliyevna<sup>1</sup>

- Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan qadimgi Farg'ona (Davan, Day-yuan) davlatining samoviy tulporlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada arxeolog olimlar A.N.Bernshtam va Yu.A.Zadneprovskiyar tomonidan o'rganilgan Aravon va Ayrimachtaudagi qoyatoshlarga chizilgan samoviy otlarning suratlari, ularning tarixiy ahamiyati haqida fikrlar ham bildirilgan. Qadimgi Farg'ona davlatining boshkentini [9:55], [17] bo'lmish Mingtepa (Ershi) arxeologiya yodgorligi yaqinidan (Ulug'tog' etaklaridan) topilgan yangi qoyatosh suratlari, ularning tarix va arxeologiya fanlari uchun muhim ekanligi, qadimgi Farg'ona davlati tarixini ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi noyob topilmalardan biri ekanligi bayon etilgan.

**Аннотация**

В статье приводятся сведения о легендарных лошадях древнего Ферганского государства (Давань, Дай-юан), сыгравших важную роль в истории Средней Азии. В статье рассмотрены петроглифы, высеченные на скалах в Аравоне и Айримачтау, изученные археологами А.Н.Бернштамом и Ю.А.Заднепровским и историческое значение этих петроглифов. Недавние находки петроглифов, обнаруженных близ (Улугтог) археологической стоянки Мингтепа (Эрши) [17], которая была столицей древнего Ферганского государства, их значение для наук истории и археологии, насколько их важность для научного изучения истории древнего Ферганского государства подробно изложено в статье.

**Abstract**

The article contains data about legendary horses of an ancient state of Fergana (Davan, Day-yuan) which played an important role in the history of Central Asia. The petroglyphs incised onto rocks in Aravon and Ayrimachtau studied by archeologists A.N.Bernshtam and Yu.A.Zadneprovsky and those petroglyphs' historical importance have been discussed in the article. The recent discoveries of petroglyphs found near (Ulug'tog') the archeological destination of Mingtepa (Ershi) [17] which was the capital of the ancient state of Fergana, their importance for the sciences of history and archeology, how important discoveries they are for the scientific study of the history of ancient state of Fergana was explained thoroughly in the article.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Farg'ona (Davan, Day-yuan) davlati, "samoviy tulporlar", Xan davlati, elchi Chjan Syan, Aravon va Ayrimachtau qoyatosh suratlari, Mingtepa (Ershi) shahri, Mingtepa yaqinidagi Ulug'tog' etagidan topilgan yangi samoviy otlar suratlari, Buyuk ipak yo'lining "Qashqar-Farg'ona" bo'lagi.

**Ключевые слова:** Древнее Ферганское государство (Давань, Дай-юан), "легендарные кони", государство Хана, посол Чжан Цянь, петроглифы Аравона и Айримачтау, город Мингтепа (Эрши), новые петроглифы легендарных коней найдены в окрестностях Улугтог близ Мингтепа, участка «Кашкар-Фаргона» Великого Шелкового пути.

**Key words:** Ancient state of Fergana (Davan, Day-yuan), "legendary horses", the state of Khan, ambassador Chjan Szyan, petroglyphs of Aravon and Ayrimachtau, the city of Mingtepa (Ershi), new petroglyphs of legendary horses found in the outskirts of Ulug'tog' near Mingtepa, "Kashkar-Fargona" section of the Great Silk Road.

**Kirish.** O'zbekiston tarixining turli davr va bosqichlari bugungi kunda tanqidiy nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Ayniqsa, yurtimizning qadimgi davr tarixini arxeologik va yozma manbalar asosida o'rganish, ilmiy tahlil qilish tadqiqotchilarning muhim vazifalaridan biridir. Markaziy Osiyoda qadimgi davlatlarni o'rganishda ham yozma va arxeologik manbalar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan qadimgi davlatlardan biri Farg'ona davlati (Davan, Day-yuan) bo'lib, uning tarixi haqidagi manbalarda Farg'onaning duldul (uchar, samoviy tulporlari) otlari

## TARIX

haqida so'z yuritiladi. Miloddan oldingi IV milodning IV asrlarda hukm surgan bu davlatni dunyoga tanitgan "samoviy otlar" haqidagi ma'lumotlar ilk bor Xitoy manbalarida uchraydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review):**

Qadimiy Farg'ona davlati va bu yerda yetishtirilgan mashhur "samoviy otlar" tarixiga oid manbalarni asosan yozma va arxeologik manbalarga ajratib tahlil etish mumkin. Qadimgi Farg'ona otlari haqidagi ilk yozma ma'lumotlar qadimgi G'arbiy Xan imperiyasi saroy tarixchisi Sima Syanning "Shiji" – "Tarixiy xotiralar" asarida uchraydi. Ushbu asarni rus tiliga ilk bor tarjima qilgan sinolog N.Ya.Bichurin[5], keyinchalik N.M.Kyuner[7] hamda A.Xo'jayev[14] tarjimalarida ham qadimgi Farg'ona otlari haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Qadimgi Farg'ona otlari haqidagi asoslangan ma'lumotlarni A.N.Bernshtam[4], Yu.A. Zadneprovskiy[6], B.X.Matboboyev[11],[10]lar o'zlarining arxeologik qazishma ishlari natijalarida yozgan ilmiy asarlarida batafsil yoritib berganlar.

Xitoyda qadimda Farg'ona otlari haqida ko'plab she'rlar, afsonalar, qo'shiqlar to'qilgan[1:35],[10:10].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):**

Maqola tarixiy metodlardan tarixiylik va ketma-ketlik asosida qadimgi Farg'ona davlati samoviy otlari o'rganilish tarixi haqida yoritilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results):**

Qadimgi Farg'ona samoviy otlari haqida ilk ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Qadimgi Xan imperatori U-di (mil.old.140-85 yy.) o'z davlati hududini kengaytirishni maqsad qiladi. Shu sababli asosiy raqibi bo'lmish xunlarga qarshi ittifoqchi qidirib, elchi va sayyoh Chjan Syanni G'arb davlatlariga yuboradi. Uning hisobotlari asosida yozilgan saroy tarixchisi Sima Syanning "Shiji" ("Tarixiy xotiralar") asari bizgacha yetib kelgan. Asarda Markaziy Osiyoda hukm surgan qadimgi Farg'ona, Parfiya, Baqtriya, Qang' davlatlari tarixi, xalqi va turmush tarzi haqida ma'lumotlar mavjud[5],[14]. Asarda Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan qadimgi Farg'ona davlati tarixi, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, elchining Farg'ona otlariga bergan ta'rifi imperatorning hayratiga sabab bo'lgan; "[Ularda] badanidan qonsimon ter chiqadigan zotli otlar ko'p ekan. Aslida ushbu otlar Tangri otlaridan tarqalgan ekan".[14:33] Davan otlari baland bo'yli, bo'yni oqqushning bo'yni kabi uzun va ingichka, xiyol egilib turuvchi, oyoqlari ingichka uzun, tanasi baquvvat, dumi uzun, kallasi kichik[6:179], [4:157] qilib tasvirlangan.

Tangri o'g'li (U-di) Davan otlariga juda qiziqib qolib, paxlavon Che Ling va boshqalarni ko'p oltin, oltindan yasalgan ot haykalcha bilan yuborib (B.X.Matboboyevning ma'lumoticha haykalcha 850 gr. sof tilladan yasalgan), Ershi shahrida boqiluvchi qadimgi Farg'ona arg'umoqlariga ega bo'lmoqchi bo'ladi[15:42].

Mana shu samoviy otlar tufayli Xan qo'shinlari Davan davlatiga ikki marotaba harbiy yurish qilgani tarixdan ma'lum[3:147-149]. Xan imperiyasi qo'shini miloddan oldingi 104 yildagi harbiy yurishida O'zgan (Yuchen, Yivecheng) shahrida mag'lubiyatga uchrab orqaga qaytishga majbur bo'lgan. Miloddan oldingi 101 yildagi xanliklarning Davanga ikkinchi harbiy yurishi uchun Xan qo'shini kuchli tayyorgarlik bilan Ershi (Mingtepa) shahrigacha yetib keladi. Tashqi shahar vayron qilingach, 40 kunlik qamaldan so'ng holdan toygan va qo'shinning katta qismini yo'qotgan xanliklar sulh tuzishga majbur bo'ladi. Sulhga ko'ra davanliklar Xan qo'shini uchun bir necha o'nta zotdor otlardan va 3 mingdan ortiq o'rta hol otlardan[14:63] berishga majbur bo'ladi. Davanliklar samoviy otlarni qadimiy Farg'onaning "g'ururi va faxri" deb bilganlar. Shu sababli, sulhga binoan Xan qo'shini uchun berilgan zotdor otlarni davanliklar o'z yurtida qolishini istab, chegarada qirib yuboradilar. Ma'lumotlarga qaraganda ana o'sha zotdor otlar qirib yuborilgan qishloq hozirgi kunda ham mavjud bo'lib, uning nomi "Mo-si"-xanliklar tilida "Ot o'ldi" nomi bilan ataladi[16:187].

"Xanshu" ("Xan sulolasi tarixi") nomli tarixiy manbada qadimgi Farg'ona otlari haqida afsona bayon etilgan. "Aytishlaricha, Farg'ona mamlakatida baland tog' bor ekan. Ushbu tog'ning ustida ot mavjud ekan, lekin, bu otni ushlab bo'lmas ekan. Shu bois undan nasl olish maqsadida bir dona rangdor urg'ochi otni tog' etagiga bog'lab qo'yishibdi. Tog'dagi otdan tug'ilgan toychoq tanasi qonsimon terga botgan ekan. Shu sababli u samoviy ot deb nomlangan ekan"[14:71-72]

Shuningdek, ushbu manbaning “Nag'ma-navo tazkirasida”da samoviy otlar haqidagi she'riy misralar ham mavjud.

Mana Farg'ona mamlakatidan keltirilgan, dovrug' qozongan ot!

Uning ustuxoni naqadar zo'r va baquvvat!

Ikki qulog'i huddi bambuk navdasiga o'xshab turadi.

Ikki juft tuyog'idan bo'ron ko'tariladi! [12:36]

Samoviy otlarning suratlari Aravon qoyatoshlarida, Novqat yaqinida va Ayrimachtauda topilgan qoyatoshlarda tasvirlangan.

Arxeolog olim A.N.Bernshtam 1946 yil Aravon tog'i yaqinidagi qoyatosh suratlari samoviy otlar tasvirlarini topgan (1-rasm). Ushbu suratlar ikki kompozitsiyadan iborat bo'lib, qattiq (metal) asbob yordamida toshga o'yib chizilgan. Qoyatoshlarga samoviy otlar, insonlar, tog' echki(arxar)lari, itlarning suratlari tushirilgan. Ikkala kompozitsiyada jami 4 ta otning surati bo'lib, bo'yni uzun, boshlari kichkina, oyoqlari ingichka uzun qilib tasvirlangan.[4:155-157] A.N.Bernshtamning ushbu kashfiyoti qadimiy Farg'ona davlatining dunyoga mashhur bo'lgan samoviy otlari haqidagi tarixiy manbalarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Qoyatoshdagi “duldul otlar” juda baquvvat, baland bo'yli qilib tasvirlangan bo'lib, ularning yonida insonlar, tog' echkilar va itlar juda kichik qilib ko'rsatilgan. Bundan ko'rinadiki, samoviy otlar Xan imperatori U-di orzu qilgandek, baquvvat va baland bo'yli ko'rinishda mahalliy rassomlar tomonidan mahorat bilan chizilgan. Bu suratlardagi hayvonlar ovlash maqsadida emas, balki, ushbu hayvonlar muqaddas sanalib, quyosh e'tiqodi orqali barcha timsollarda farovonlik ramzlari sifatida ifodalangan. Bu marosim ishtirokchilari ehtimol biror diniy marosimni bajarganlar.[4:155-157]

Yu.A.Zadneprovskiy 1961 yilda Ayrimachtauda olib borgan arxeologik kuzatuv ishlari davomida aynan Aravon qoyatoshlaridagi samoviy otlar kabi suratlarni topishga muvaffaq bo'lgan (2-rasm). Qoyatosh suratlari jami 34 ta hayvon surati tasvirlangan bo'lib, ularning taxminan 30 tasi otlarning suratlardir.[6:179] Otlar Aravon qoyatoshlaridek, qattiq jism bilan o'yib ishlangan bo'lib, bo'yni uzun, dumi uzun, kallasi uncha katta bo'lmagan ko'rinishda, oyoqlari uzun qilib tasvirlangan. Otlarning suratlari ularning oyoqlari ikkita qilib, siluet (bir xil rangda) ko'rinishida tasvirlangan.[6:179-180]

A.N.Bernshtam tomonidan o'rganilgan Aravon qoyatoshlaridagi otlarning suratlari ham xuddi shunday tarzda, ya'ni ikki oyoqli qilib tasvirlangan.[13:14]

Qadimgi Farg'ona davlatining boshkenti bo'lmish Ershi shahrining o'rni deb, e'tirof etilayotgan Mingtepa[4],[6],[2],[9],[17] arxeologiya yodgorligi yaqinidan ham mana shunday samoviy otlarning suratlari topildi. (3-rasm) Bu esa qadimiy Davan davlati tarixi uchun muhim ahamiyatga ega yangilik, ya'ni noyob topilmadir.

Mingtepa arxeologiya yodgorligi Andijon shahri markazidan 38 km uzoqlikda, hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashgan. Bu tarixiy yodgorlikda arxeologlar: M.E.Masson 1939 yilda, A.N.Bernshtam 1946-1948 va 1950-1952 yillarda, Yu.A.Zadneprovskiy 1973 va 1987 yillarda, B.X.Matboboyev 1986-1987, 2002 yillarda qazishma ishlari olib borganlar. Ayniqsa, 2012 yildan buyon tarix fanlari doktori, professor Boqijon Matboboyev va professor Dju Yangshi rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti hamda Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti arxeolog olimlari hamkorlikda arxeologik tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Natijada qadimiy shahardan juda qimmatli moddiy ashyolar topildi va ushbu topilmalar qadimiy shahar tarixi uchun katta ahamiyatga ega.

Yangi topilgan samoviy otlar suratlari ham Mingtepa tarixini boyitishga xizmat qiladi. Suratlar Mingtepa yaqinidagi Ulug'tog' etaklarida joylashgan toshlarga chizilgan. Ulug'tog' Mingtepa shahar xarobasining janubiy-sharqiy tomonida, taxminan 10-12 km uzoqlikda, dengiz sathidan 1640 metr balandlikda joylashgan. Yuqoridagi fikrlarga aniqlik kiritish maqsadida biz tomonimizdan dala tadqiqot ishlari olib borildi. Shu yerlik ovchi, Mingtepa va samoviy otlar haqida ma'lumotlar yig'ib yuruvchi havaskor izlanuvchi Nabijon Akbarov bilan suhbat olib borildi. Uning aytishicha, yoshligidan Ulug'tog'da chorva boqib, ovchilik qilib yurgan. Nabijon Akbarov tog'dagi Merganzov (Mergancho'qqi) degan joyda toshlarga o'yib chizilgan bir necha samoviy otlarning, tog' echkilarining, turli ko'rinishdagi insonlarning, tuya karvonlarining suratlari ko'rgan. Lekin, u hozirgi kunga kelib bu suratlarning ko'pchiligi yo'q bo'lib ketganligini, qurilish ashyosi sifatida foydalanish

## TARIX

maqsadida toshlari o'yib olinganligini ta'kidladi. 2021 yil 18 aprel kuni "Mingtepa-madaniy-meros" jamoat fondi tomonidan "18 aprel-Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash halqaro kuni" (Xalqaro meros kuni) munosabati bilan har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan tanlov va ko'rgazmaga Nabijon Akbarov o'zi bilan birga o'sha tog'dagi samoviy otlarning suratlarini olib keldi. Suratlar xuddi Aravon tog'dagi va Ayrimachtaudagi samoviy otlarning tasvirlariga juda o'xshardi. Suratda ikkita ot va kichkina toychoq tasvirlangan bo'lib, Xitoy manbalarida yozilgandek tasvirlangan (3-rasm).

Nabijon Akbarovning so'zlariga asoslanib, Ulug'tog' daralariga Madaniy meros agentligi Andijon viloyati boshqarmasi, "Mingtepa – madaniy meros" jamoat fondi va Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi hamkorligida rasmlarni o'rganish uchun maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. (Maqola muallifi ko'rgazma va ekspeditsiya tashkilotchilaridan biri)

Suratlar qattiq jism bilan o'yib ishlangan bo'lib, ikkita kompozitsiyadan iborat. Birinchi kompozitsiyada 2 ta katta va 1 ta toychoqdan iborat jami 3 dona Davan otlarining surati tasvirlangan (3-rasm). Otlar bo'yni uzun, oyoqlari uzun va ingichka, dumi ham uzun, kallasi kichik qilib chizilgan. Lekin, bu tasvirlar arxeolog olimlar A.N.Bernshtam va Yu.A.Zadneprovskiyar tomonidan o'rganilgan qoyatosh suratlaridan biroz farq qiladi[6:180] (1,2-rasmlar). Ikkinchi kompozitsiyada esa taxminan 5 ta otlarning, tuyalar karvonining, insonlarning uzuq-yuluq tasvirlarini ko'rishimiz mumkin(4,5,6-rasmlar). Bu qoyatosh suratlarini hali e'lon qilinmagan.

Ulug'tog'dan topilgan samoviy otlar suratlarini haqidagi ma'lumotlarni shu yerlik keksalardan Ahmadjonov Abdulhamid ota (Mergan tog'a, 102 yoshli) ham tasdiqlaydi. U bilan bo'lgan suxbatda, yoshlik davrlarida tog'da ov qilib, yilqi boqib yurgan vaqtlarda ana shu rasmlarni ko'p marotaba ko'rganligini so'zlab berdi. U taxminan o'tgan asrning 50 yillarida mana shunday uchqur yovvoyi otlarni Ulug'tog'da o'z ko'zlari bilan ko'rganligini, xattoki, ulardan bittasini otib qo'yib, 40 kun kasal bo'lib yotganini esladi. Otaxonning aytishicha, o'sha otning bo'yni uzun, oyoqlari ingichka, uzun, dumi ham uzun bo'lgan ekan.

Mingtepa shahri Buyuk ipak yo'lining Farg'ona vodiysidan o'tgan qismida joylashgan bo'lib, Qashqar-Farg'ona bo'lagidagi asosiy shaharlardan biri bo'lgan[8:28]. Mingtepa yaqinidan topilgan suratlardagi tuyalar karvoni tasviri ham bu qadimiy shahardan Buyuk ipak yo'li o'tganligini yana bir bor isbotlaydi (6-rasm). Mingtepa shahri orqali G'arb va Sharq mamlakatlari uzoq yillar bir-biri bilan savdo-sotiq, madaniy, elchilik munosabatlarini amalga oshirib kelganlar.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarixiy manbalarda ta'riflangan va arxeologik qazuv ishlarida topilgan qadimgi Farg'ona samoviy otlarini o'rganish orqali vatanimizning qadim tarixidagi ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga ham oydinlik kiritish mumkin. Ya'ni ushbu otlar tasvirlangan qoyatosh suratlarini orqali chorvachilik, madaniy va diniy turmush tarzi, tashqi savdo-sotiq va elchilik aloqalarini ham aniqlashtirish mumkin.


Ulug'tog' etaklaridan topilgan qoyatosh suratlarini ilmiy jihatdan yangilik bo'lib, kelgusida arxeolog, tarixchi olimlarimiz tomonidan kengroq o'rganilishi zarur bo'lgan manbalardan biridir. Qoyatosh suratlar Davan davlati tarixini ilmiy o'rganish uchun asos bo'la oladi. Shu bilan birga, qadimiy Farg'ona (Davan, Day-yuan) davlatining poytaxti Mingtepa shahar xarobasi ekanligini tasdiqlovchi qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.[9:56]

Mingtepa yodgorligi tarixi va qadimiy Farg'ona samoviy otlari tasvirlangan qoyatosh suratlarini tarixchi olimlarimiz tomonidan o'rganish, ilmiy tadqiq etishni yanada kengroq targ'ib qilish uchun ko'rgazma tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.


1-rasm. A.N.Bernshtam  
suratlari. Aravon.



tomonidan aniqlangan qoyatosh




2-rasm.  
aniqlangan



Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan  
qoyatosh suratlari. Ayrimachtau.



3-rasm. Mingtepa yaqinidan (Ulug'tog' etaklaridan) topilgan qoyatosh suratlari.





## TARIX

4-rasm. Mingtepa yaqinidan (Ulug'tog' etaklaridan) topilgan qoyatosh suratlari.



5-rasm. Mingtepa yaqinidan (Ulug'tog' etaklaridan) topilgan tuyalar karvoni bitilgan qoyatosh suratlari.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abduholiq Abdurasul o'g'li. Qadimgi Farg'ona tarixidan. – Toshkent. "FAN". 2002. (Абдухалиг Абдурасул оглы. Из истории древней Ферганы. – Ташкент. "ПОКЛОННИК")
2. Анарбаев А.А. Qadim Farg'ona davlati va uning poytaxti tarixidan lavhalar //Vodiynoma. 2016. №1 (Анарбаев А.А. Отрывки из истории древнего Ферганского государства и его столицы)
3. Asqarov A. Marhamatga tashrif va Ershi mudofaasi haqida mulohazalar// O'zbekiston arxeologiyasi. 2010. №1. (Аскарлов А. Визит в Мархамат и комментарии к обороне Эрши // Археология Узбекистана)
4. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // Советская этнография. 1948. №4 (Bernshtam A.N. Aravon qoyatosh san'ati va Davan (Farg'ona) poytaxti Ershi // Sovet etnografiyasi.)
5. Бичурин. Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л. 1950. (Bichurin. N.Ya. O'rta Osiyoda qadimda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami.)
6. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА. Вып. 118. М.-Л.1962. (Zadneprovskiy Yu.A. Farg'onaning qadimgi dehqonchilik madaniyati)
7. Кюнер Н.М. Китайские известие о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. М. 1961. (Kuner N.M. Janubiy Sibir, O'rta Osiyo va Uzoq Sharq xalqlari haqida Xitoy yangiliklari.)
8. Matboboyev B.X., Shamsutdinov R.T., Mamajonov A. Buyuk ipak yo'lidagi Farg'ona shaharlari. – Andijon: Meros, 1994. (Матбобоев Б.Х., Шамсутдинов Р.Т., Мамажонов А. Города Ферганы на Великом шелковом пути. – Андижан)
9. Matboboyev B.X. Mingtepa: Arxeologik qazishmalar va ularning taxlili // "Vodiynoma". 2019. №3(14) (Матбобоев Б.Х. Мингтепа: Археологические раскопки и их анализ)
10. Matbabaev B.X. Городище Мингтепа // Древние города Ферганской долины. Т. 2009. (Matbabaev B.X. Mingtepa manzilgohi // Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlari)
11. Matboboyev B.X. Oltindan qimmat tulporlar// Fan va turmush. 1994. №3 (Матбобоев Б.Х. Золотые грифы // Наука и жизнь.)
12. Matboboyev B.X. Qadimgi Farg'ona davlati (Davan). //O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. –Toshkent. 2001. (Матбобоев Б.Х. Древнее Ферганское государство (Давань). // Очерки истории государственности Узбекистана. – Ташкент.)
13. Matboboyev B.X. Ummatov A. Mingtepadan topilgan noyob tasviriy san'at asari// Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar. O'ZRFA Tarixi muzeyi. Toshkent. 2019. (Матбобоев Б.Х. Умматов А. Уникальное произведение изобразительного искусства, найденное в Мингтепе // Материальное и духовное наследие и общечеловеческие ценности. Музей истории Республики Узбекистан. Ташкент.)
14. Xo'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar: (Qadimiy va ilk o'rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). Farg'ona. "Farg'ona" nashriyoti. 2013. (Ходжаев А. Сведения по истории Ферганы: (Переводы и комментарии из древних и раннесредневековых китайских источников). Фергана. Издательство Фергана.)
15. Mingtepa. Ilmiy-ommabop to'plam. – Namangan. Namangan. 2019. (Мингтепа. Научно-популярный сборник. – Наманган. Наманган.)
16. Egamberdiyev M. Sariq ajdar hamlasi. Quvilish. –Toshkent. Tafakkur. 2016 yil. (maqola muallifining aniqlashicha Mossi qishlog'i hozirgi Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati Novqat tumanida joylashgan). (Эгамбердиев М. Атака желтого дракона. Изгнание. –Ташкент. Тафаккур. 2016. (По данным автора статьи село Моси находится в Ноокатском районе современной Джалал-Абадской области Кыргызской Республики).
17. O'ljayeva Sh. Davan (Qadimgi Farg'ona) davlati tarixi haqida yana bir bora. 25.03.2018. <https://www.facebook.com/groups/> (Оляева Ш. Еще раз об истории государства Давань (Древняя Фергана).

(Такризчи: Б.Усманов – тарих фанлари доктори)